



BUXORO PEDAGOGIKA MAKTABINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich

Osiyo Xalqaro Universiteti Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti

Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8000741>

Annotatsiya: *Bu maqolamda Buxoro madrasalari qanday shakllangn. BuxoroMir arab madrasalar soni 400 ga yaqin bo'lgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan Madrasadagi talabalar soni va ularning o'qish muddati madrasa daromadiga bog'liq bo'lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida Buxoro Mir arab madrasaning xizmatlari juda ham katta bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, odob-axloq, madrasalar, ilm-fan, olimlar, maktablar, quron kitobi, iqtidor, bilim,*

Qadimdan Buxoro o'zining ko'plab madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Narshaxiyning fikricha, 937 yilgi yong'indan zarar ko'rgan "Forjak" madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardan sanalgan. Abu Hafs Kabir Buxoriy ham Buxoroda ilmiy va diniy bilimlar rivojiga katta hissa qo'shgan madrasaga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Sharqda ham mashhur edi. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o'tagan.

Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan.

Asosiy qism

Muhammad Ali Baljuvoniyning ma'lumotiga ko'ra, XX asrning boshlariga kelib, Buxoroda madrasalar soni 400 ga yaqin bo'lgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan. Shunday madrasalardan biri Miri Arab madrasasi hisoblanib, uni 1530-1536 yillarda Buxoro xoni, mumtoz shoir Ubaydullaxon (1510-1539/40 yillarda hukmronlik qilgan) in'om etgan mablag' hamda ko'plab vaqf mulklari hisobiga Shayx Abdulloh (Miri Arab) qurdirgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy





Davlat arxivida saqlanayotgan I-323-jamg'armadagi vaqf hujjatida ham 1527 yil madrasa uchun ajratilgan ko'p sonli dehqonchilik yer maydonlari, butun qishloqlar va boshqa mol-mulklar birma-bir sanab berilgan.

Miri Arab madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmay, 1536 yil boshida vafot etadi. Vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan. Shu tariqa madrasa oliy o'quv dargohi sifatida mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma'rifatparvarlarni yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan. Sadri Ziyo(1865-1932 yy.)ning ma'lumotiga ko'ra, Shohmurod Miri Arab madrasasining bitta hujrasida kecha-kunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug'ullangan va xalq orasida "Amir Jannatmakon" laqabi bilan tanilgan. Amir Haydar ham shu yerda tahsil olgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan.

Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o'z mutavallisi bo'lgan. Mutavalli xodim va talabalarga to'lanadigan haq, vaqf yerlarida ishni tashkil etish, mardikorlar yollash, ijarachilar va hissadorlar bilan shartnoma tuzish, do'konlar, tegirmonlar va madrasaning vaqf mulkiga kiruvchi boshqa obyektlardan ijara haqini undirish va undan boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Shuningdek, madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va oзуqalik don hisobidan ajratilgan.

Mutavalliga madrasadagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (o'qituvchi-mudarrislardan tashqari) faoliyatini, ayrim hollarda esa talabalarning darsga qatnashish davomatlarini nazorat qilib turish yuklangan. Uning lavozimi otadan bolaga meros tariqasida o'tishi yo'lga qo'yilgan. Vaqf daromadlari madrasa talabalari, mudarrislari, mutavalli va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar o'rtasida shariat ko'rsatmalari asosida taqsimlangan.

Madrasadagi talabalar soni va ularning o'qish muddati madrasa daromadiga bog'liq bo'lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan. O'quv yili oxirida talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan bevosita otanalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma – diplom berilgan. Hatto a'lo baholarda o'qigan talabalar amir tomonidan turli sovg'a va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan. Masalan, qo'shrabotlik talaba Kamoliddin Miri Arab madrasasini a'lo baholar





bilan yakunlagach, unga amir Abdulahad sarupo kiygizib, "Qur'oni karim" va "Al-Jome' as-sahih" kitoblarini sovg'a qilib saroyda ishlashga taklif etgan.

Miri Arab madrasasida uzoq yillar davomida tahsil olib, bosh mudarrislik lavozimigacha ko'tarilgan Ahmadxon ibn Ismoilxon ham amirning buyrug'iga binoan dahyak olgan. Bundan tashqari, O'zR MDA'dagi "Qushbegi fondi" da yuz nafar a'lo bahoga o'qiydigan talabalarni taqdirlash uchun muftining amirga yozgan arizasi saqlanmoqda.

Fond hujjatlari bilan tanishganda amir "ziyoratchilari" ning ro'yxatlari ham saqlanishi aniqlandi. Ushbu hujjatlar Sadridin Ayniyning: "Miri Arab madrasasidagi "ziyoratchi" talabalar madrasada yashab, har kuni tongda amir saroyidagi "Mehmonxonai Rahimxoniy" ga o'tirib Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) haqlariga salavot va duolar o'qib qaytganlar. Ular davlatdan har oy 30 tanga maosh olishgan. Bundan tashqari, har kun bitta non va mayiz olishgan", degan fikrini isbotlaydi.

Madrasaga asosan maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan. E.K.Meyendorf, N.P.Ostroumov, N.V.Xanikov, P.I.Demezov, T.M.Aminov, V.L.Benin, D.N.Logofetlar tadqiqotlarida madrasada ta'lim 10 yildan 30 yilgacha bo'lishi va darslarda qaysi fanlar o'qitilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo'lingan. A'lo (oliy), avsat (o'rta) va adno (quyi). Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan.

Sadridin Ayniyning yozishicha, madrasada haftada to'rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya'ni, yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg'ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan.

Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan. Dars ertalab soat 4:00 dan 10:00 gacha davom etgan. 12:00 da tushlik, so'ngra bahs-munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan. Kechki ovqatdan so'ng yana tungacha bahs-munozara davom etgan. Talabalar o'quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o'qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlariga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.

O'quv dasturlari uch qismga bo'lib o'rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta'lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo'llanmani o'zlashtirish





talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini Markaziy Osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to'plamlari, Abu Mansur Moturidiyning "Kitob at-tavhid", Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-hidoya fi sharh al-bidoya", Umar Qazviniyning "Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiyya", Abdurahmon Jomiyning "Al-favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning "Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'ud Mahbubiyning "An-nuqoya" kabi asarlari tashkil etgan.

Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarining salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san'ati va gigiyena kabi fanlardan ham bilim olishgan. Masalan, Miri Arab madrasasida tahsil olib, shu yerda tib ilmidan saboq bergan olim Ahmadxon ibn Ismoilxon ham dorishunoslikka oid "Qarabodin Tayloqiy" va shogirdi Abul Baqo Maxzum ibn domlo Ernazar mudarris "Hujjatu-l-labib" nomli asarlarini ta'lif etishgan. "Qarabodin Tayloqiy" nomli risolada Miri Arab madrasasida ikkita hujra aynan bemor davolashga ajratilgani, unda muallif - Ahmadxon ibn Ismoilxon bemorlarni davolagani yozilgan. Bu haqda "Buxoro madrasalari tarixidan: Ahmadxon ibn Ismoilxon merosi" nomli kitobda to'liq ma'lumot berganmiz.

Shuningdek, bilim yurtini ochilishiga sababchi bo'lgan muftiy Eshon Boboxon, muftiy Eshon Ziyovuddinxon va zamonamizning taniqli ulamolari Abdulg'ani Abdullayev, Muxtorjon Abdullayev, Yusufxon Shokirov, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Fozil qori Sobirov, Rahmatulla qori Obidov, Abdurashid qori Bahromov, Usmonxon Alimov, Abdulg'afur Razzoqov va respublikamizdagi imom-xatiblarning aksariyati ham madrasaning faxriy talabalaridan bo'lganlar.

Hozirgi kunga kelib Miri Arab madrasasida 4 yil davomida diniy fanlar bilan bir qatorda umumta'lim fanlari ham o'qitiladi. Bilim yurtida 30 nafar ma'lumoti oliy va malakali o'qituvchi-mudarrislar 130 ga yaqin talabalarga dars berib kelmoqdalar. Madrasada talabalarining ilm olish va yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Bilim yurti talabalari kompyuter xonasi, fan kabinetlari va madrasa kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy boy madaniy va ma'naviy merosimiz hisoblangan qo'lyozma va toshbosma kitoblardan foydalanadilar. Uzoq tuman va boshqa viloyatlardan kelgan talabalar yotoqxona bilan ta'minlangan.

Madrasani bitirganlarga islomshunos, imom-xatib va arab tili o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha shahodatnoma beriladi. O'z ilm saviyasini oshirishni istagan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori





(2003 yil 22 avgust)ga asosan davlat oliy ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish huquqi berilgan.

Xattot Mirali Fathobodiy — Buxoriy ushbu forsiy qit'ani Madrasa darvozasiga yozgan: "Mir Arab faxri Ajam onki kard — Madrasai olii bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai olii Mir Arab". Madrasa Minorai kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtokli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go'rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan). Go'rxona ichi gumbaz osti bag'ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o'ymakorligida bezatilgan, izorasi rangbarang koshinli. Go'rxonada Ubaydullaxon (1537 y. v. e.)ning yog'ochdan xotamkori usulida ishlangan sag'anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor.

Qadimgi Buxoro islom madaniyati va O'zbekistonning qadimiy tarixi markazidir. Bu shahar o'zining ikki ming yillik tarixi davomida buyuk tarixiy voqealarga, ayovsiz qonli janglarga guvoh bo'lgan. Bu janglardan biri 1511-1512-yillarda Temuriy Bobur qo'shinlari va o'zbek xoni Shayboniyxon o'rtasida bo'lib o'tgan. 1512-yil noyabr oyida G'ijduvon yaqinida o'zbek qo'shinlari Muhammad Boburning birlashgan qo'shinini mag'lub etadi. G'ijduvon jangi g'olibi, Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Qur'oni karim bilimdoni, iste'dodli shoir, olimlar homiysi Ubaydullaxon Buxoro hukmdori etib tayinlandi.

Aynan Ubaydullaxon davrida Buxoro gullab-yashnadi, shahar o'ziga xos me'moriy uslubga ega bo'ldi. 1514-yilda Kalon jome masjidi qayta tiklandi, u Qoraxoniylar Arslonxon davrida qurilgan (1102-1130), 1404-yilgacha Movarounnahrda eng yiriklaridan biri, Samarqandda Temurning nabirasi tomonidan qurilgan Bibi-Xonim masjidi Ulug'bek tomonidan tugallangan. Ubaydullaxonning buyrug'i bilan masjidning old qismi katta peshtoq bilan bezatilgan va yangi mehrob o'rnatilgan. 1530-yilda Bibixonim masjididan uncha uzoq bo'lmagan joyda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasidan kattaroq bo'lgan Miri Arab madrasasi qurilishi boshlandi. Yangi madrasa Yamanda tug'ilgan arab olimi, nufuzli naqshbandiy shayx Xo'ja Axrarning shogirdi va Ubaydulloxonning ruhiy ustozlari Amir Abdulloh al-Yamaniy sharafiga nomlangan.

Miri Arab madrasasi bugungi kunda Kalon masjidi va minorasini hamda Amir Olimxon madrasasini o'z ichiga olgan Poyi-Kalon me'moriy ansamblining bir qismidir. Madrasaning old qismi Kalon minorasi tomonga qaragan. Madrasaga kiraverish ulug'vor va chuqur bezatilgan peshtoq bilan bezatilgan, o'zining old tomonida ulkan minoralari joylashgan. Agar siz o'ng tomondagi markaziy kirishdan kirsangiz, Shayx Abdulla al-Yamaniyning marmar qabrini va





Ubaydulloxon dafn qilingan joyni ko'rishingiz mumkin. Binolar ko'k plitalar bilan qoplangan ikkita gumbaz bilan qo'riqlanadi. Hovlida – o'quv xonalari, xujralar bo'lib, yozgi sinflar esa kichik hajmli ayvonlar ko'rinishida qilingan. Hovli ikki qavatli galereya bilan o'ralgan, talabalar uchun mo'ljallangan 111 ta hujra mavjud. Yozgi auditoriyalar kichik hajmli ayvonlar ko'rinishida tayyorlangan.

Mir Arab madrasasi har doim islomiy ma'naviy ta'lim markazi hisoblangan; uning devorlarida butun islom olamining taniqli ruhiy arboblari va muftiylari o'qigan. Madrasa faoliyati 1920-yilda Buxoro amirligi bolsheviklar tomonidan qo'lga kiritilganda to'xtatildi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet hukumati dinga munosabatini o'zgartirib, asta-sekin ma'naviyat institutlarini ochishga kirishdi. 1943-yilda Toshkentdagi Musulmon Ulamolar Qurultoyi Markaziy Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy Boshqaruvini tuzdi, uning raisi Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon etib tayinlandi. Shayxning sa'y - harakatlari bilan 1945-yilda Miri Arab madrasasi tiklandi va ta'lim muassasasi maqomini oldi. Mashhur ma'naviy va siyosiy rahbarlar, muftiylar va hatto ba'zi davlatlarning rahbarlari turli davrlarda Mir Arab madrasasining bitiruvchilari bo'lgan.

Ulardan eng mashhurlari: O'zbekiston bosh muftiysi va O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi Usmonxon Alimov, Rossiya muftiylari kengashi raisi Ravil Gaynutdin, Ozarbayjon muftiysi Allohshukur Pashazade, Qozog'iston muftiysi Ratbek Nysanbayuly, Checheniston Respublikasi sobiq prezidenti Ahmad Qodirov, Rossiya oliy muftiysi Tajuddin Talgat Safich, Markaziy Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi raisi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf

Xulosa

Bugungi kunda zamonaviy Buxoro mir arab madrasasi ta'limida internet texnologiyalaridan foydalanish jarayonini faollashtirish haqida gapirish mumkin. Bu jarayon mir arab madrasasi taraqqiyotini internet texnologiyalaridan faol foydalanish, yagona axborotni yaratish bilan bog'laydigan olimlar, o'qituvchilar, o'qituvchilar muhokamasi mavzusi bo'lgan bir qator aniq faktlarni keltirish mumkin. Ta'lim maydoni, o'quvchilarning rivojlanishi va o'z-o'zini anglashiga, yurtimiz kelajagi uchun munosib din ulamolarini yetishi uchun hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mir Arab Oliy Madrasasining Rasmiy Veb Sayti
2. <http://www.madrasalar.uz/><http://www.hidoyat.uz/>
3. <http://www.muslim.uz/>





4. Pedagogika tarixi kitobi 36-193 bet;
5. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 5(1), 103-108.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
7. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.
8. Sobirovich, T. B. (2023). MANIFESTATION OF CIVIL SOCIETY IN THE IDEOSPHERE OF UZBEKISTAN. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 89-92.
9. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. *Harmony*, 7(1), 08-16.

